



IMOM SHOMIL SHAXSIYATI.

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Mo'minov Xikmatillo Chari o'g'li

Norov Kamoliddin Bayramali o'g'li

Choriyev Behruz Abdiqodir o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr birinchi yarmida Shimoliy Kavkazda Rossiyaga qarshi ozodlik harakati rahnamalaridan biri Imom Shomil faoliyati haqida so'z boradi. Maqolani tayyorlashda o'zbek, rus, turk va ingliz tilidagi turli tarixiy ma'lumotlardan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Gimri, Kavkaz imomati, G'ozu Muhammad, Hamzabek, Semyonov, Checheniston, Hojimurod, Kaluga.

XIX asrning boshlarida Kavkazorti yerlarini Rossiya imperiyasi o'z hududiga qo'shib oldi. Shundan so'ng, podshoh hukumati Shimoliy Kavkaz (Dog'iston, Checheniston) hududlarini ham bo'ysundirishni istab qoldi. Ammo, Chor Rossiyasi Shimoliy Kavkazda juda katta qiyinchiliklarga duch keldi. Rus bosqinchilariga qarshi Kavkaz xalqi ayovsiz kurash olib bordi. Bu kurashlarda dog'istonlik imom Shomil katta jasorat ko'rsatib, uzoq muddat ruslarga qarshilik qildi.

Imom Shomil kim o'zi? U qanday qilib qarshilik harakatiga qo'shilib qoldi?

Rossiya Imperiyasiga qarshilik ko'rsatgan Kavkazning siyosiy, harbiy va ma'naviy rahbari¹ Kavkazning uchinchi imomi (1840–1859) va sunniy musulmon shayxi. Naqshbandiy so'fiy tariqatchisi. Imom Shomil 1797 yil 26 iyun kuni Dog'istonning Gimri qishlog'ida avar oilasida tug'ilgan. Unga birinchi bobosi

¹ Nicholas V. Riasanovsky „Chapter 29: The Reign of Alexander II, 1855-81“, . A History of Russia, 4th, Oxford University Press, 1984 — 389-bet.



nomiga Ali ismi qo'yiladi. Ammo, bolaligida ko'p kasal bo'lganligi uchun Islom e'tiqodiga ko'ra, Ali ismi Shomilga o'zgartiriladi. Ota-onasi uni yoshligidan taqvodorlik ruhida tarbiyaladi. Shomil yoshligidan irodasi, qiziquvchanligi, mag'rurligi va kuch-qudrati bilan do'stlaridan ajralib turdi. Yoshligidan arab tilini o'zlashtirib, Qur'oni Karimni yod oldi. Imom Shomil 15 yoshligidan ot minib, qo'lga qilich ushladi. Ulg'aygach fiqh (islom huquqshunosligi) sohasida faqih (shariat huquqshunosi) va tengi yo'q jangchi bo'lib yetishdi. Bunga uning baquvvat jussasi va ikki metrdan oshiq bo'yi omil bo'ldi.²

XIX asrning boshlarida Kavkazortining Rossiyaga qo'shib olinishi ortidan butun Shimoliy Kavkazni bo'ysundirish imkoniyati yuzaga keldi. Shu tariqa, 1816 yili boshlangan Kavkaz urushi 48 yil davom etdi. Bu urush Rus iimperiyasi g'aznasiga katta miqdorda zarar keltirdi.

Imom Shomilning bosqinchilarga qarshi kurashi dunyo tarixidagi boshqa qarshilik harakatlari bilan solishtirib ko'rsak, ma'lum bir farqli va o'xshash jihatlarini ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, Imom Shomil yangi harakat asoschisi emas Kavkaz imomligi deb nomlangan qarshilik harakati, ba'zi manbalarda davlatning ³ 3-imomi ya'ni rahbari bo'lgan. Kavkaz imomligining bundan oldingi ikki imomidan farqli o'laroq Shomilning nomi ko'proq zikr qilinishi juda qiziq albatta. Biz aynan shuning sabablarini izlaymiz. Avval, Kavkaz imomligi haqida tushunchaga ega bo'lib olsak.

Kavkaz imomligi (imomati) (arab: إمامة قفقاز), Shimoliy Kavkazda 19-asr boshlari va o'rtalarida Dog'iston va Checheniston imomlari tomonidan Kavkaz urushi davrida Rossiya imperiyasiga qarshi kurashish uchun tashkil etilgan davlat

² <https://qalampir.uz/uz/news/ka-baning-ustiga-chik-k-an-imom-shomil-yekhud-30-yil-ruslarga-k-arshi-kurashgan-kavkaz-arsloni-46267>

³ Historical dictionary of the Chechen conflict. Lanham, Maryland: Rowman & Littlefield Publishers, 2015.



bo‘lib, u yerda Rossiya aloqa xavfsizligini ta’minlash maqsadida Kavkazni bosib olishga harakat qilgan. Poytaxti - Dargo qishlog‘i. Davlat tillari - Chechen, Avar, lezgin, Kumuk. Boshqaruv shakli - monarxiya. 1828-1859-yillarda faoliyat yuritgan. Asoschisi - G‘ozi Muhammad.

Kavkaz imomligi rahbarlari G‘ozi Muhammad, undan keyin Hamzabeklar ruslarga qarshi kurashgan bo‘lsa-da, imomatning kengayishi va keskin qarshilik ko‘rsatishi, va, shuningdek, imomatning to‘liq tugatilishi ham aynan Imom Shomil nomi bilan bog‘liq.

Agar qiyosiy tahlil qilib ko‘rsak, Kavkaz imomatiga o‘xshash qarshilik harakati shaklida tashkil topgan davlatlar juda ko‘p bo‘lgan. Turk xoqonligidan tortib, Turkiston qo‘rboshilari tuzgan davlatlar bunga misol bo‘la oladi. Imom Shomil faoliyatini 3 qismga bo‘lib, tahlil qilamiz.

Birinchi qism. Shomilning imom etib tayinlanish sabablari va imomlikning dastlabki yillari.

Ikkinchi qism. Kavkaz imomligining zafarli yillari.

Uchinchi qism. Imom Shomil mag‘lubiyati va imomatning to‘liq tugatilishi. Imom Shomil taqdiri qanday yakun topishi.

Birinchi qism. Imom Shomildan oldin Kavkaz imomligiga rahbar Hamzabek edi. U 1834-yilda o‘ldirilgandan keyin, rahbarlik Imom Shomilga o‘tdi. Keyingi chorak asr davomida ruslarga qarshi tinimsiz urush olib boradi va asrning afsonaviy partizan qo‘mondonlaridan biriga aylanadi. 1839-yil iyun-avgust oylarida bo‘lib o‘tgan janglarda Imom Shomil ruslar tomonidan keskin zarbaga uchradi. Muzokaralar natijasida o‘g‘li Jamoliddinni garovga berishga majbur bo‘ldi.



Ikkinchi qism. 1845-yilga kelib, Imom Shomil va uning qo'shini Mixail Vorontsov boshchiligidagi 8-10 ming kishilik rus qo'shinini Checheniston o'rmonlarida yanchib tashladi.

1841-yilda ruslardan qochib qutulgan Hojimurod Shomil bilan ittifoq tuzib qarshilik harakatini davom ettiradi. Ammo o'zaro ichki nizolar sabab Hojimurod Shomilga keyinchalik dushman bo'lib qoladi. Va bu jarayonlar Kavkaz imomligining parokanda bo'lishi, kuchaygandan kuchayib borayotgan Rus imperatorligining Kavkaz hududlarini zabt etishiga olib keldi.

Ma'lumot uchun, aytib o'tish joizki, Hojimurod L. N. Tolstoy 1904-yilda yozib tugallagan romaniga asos bo'lgan shaxs hisoblanadi. ⁴

Uchinchi qism. Tanazzul davri. Shomil Rossiyaning Kavkazdan haydash uchun Angliya, Fransiya yoki Usmonli imperiyasi yordamga keladi, deb umid qilgan bo'lsa-da, bu rejalar hech qachon amalga oshmadi. Qrim urushidan keyin Rossiya imomatga qarshi sa'y-harakatlarini ikki baravar oshirdi. Endi muvaffaqiyat qozongan rus qo'shinlari imomat hududini keskin qisqartirdi va 1859-yil sentyabrda kelib Shomil taslim bo'ldi. Qo'lga olingandan so'ng, Shomil podshoh Aleksandr II bilan uchrashish uchun Sankt-Peterburgga yuborildi. Keyin u Moskva yaqinidagi Kaluga shahriga surgun qilindi. Kalugada bir necha yil o'tgach, u hokimiyatga iqlim haqida shikoyat qildi va 1868-yil dekabr oyida Shomil imperiyaning janubi-g'arbiy qismidagi savdo markazi Kiyevga ko'chib o'tishga ruxsat oldi. 1859-yilda Shomil o'z o'g'illaridan biriga shunday deb yozgan edi: "Mutlaq Hokim Zotning irodasi bilan men imonsizlar qo'lga tushib qoldim ... Buyuk imperator ... meni bu yerda ... baland bo'yli keng joyga joylashtirdi. gilam va barcha zarur narsalar bilan uy".

⁴ Elliott, Mark. "Azerbaijan with excursions to Georgia", 4th, 2010 — 229-bet.



1869-yilda unga muqaddas Makka shahriga haj qilish uchun ruxsat berildi. Avval Kiyevdan Odessaga yo‘l oldi, so‘ngra suv orqali Istanbulga o‘tdi va u yerda Usmonli sultoni Abdulaziz tomonidan kutib olindi. Bir muddat imperator To‘pqopi saroyida mehmon bo‘lib , Sulton tomonidan o‘zi uchun ajratilgan kemada Istanbuldan jo‘nab ketdi. Makkada, ziyorat paytida u Abdulqodir al-Jazariy bilan uchrashdi va suhbatlashdi. Makka ziyoratini tamomlab, 1871-yilda shaharni ziyorat qilgan vaqtida Madinada vafot etdi va Jannatul Boqiyda (Madinadagi tarixiy qabriston, u yerda islom tarixining ko‘plab taniqli shaxslari dafn etilgan) dafn etildi.

Xulosa

Kavkaz imomligi faoliyati chechen avar xalqlarining naqadar erksevar jasur xalq ekanligiga yaqqol dalildir.

Davlat tepasida turgan liderlar ixtilofli masalani tezda oqilona hal qilmasa, buning zarari butun davlatni inqiroziga olib keladi. Shomil va Hojimurod o‘rtasidagi kelishmovchiliklar bunga misoldir.

Imom Shomil biografiyasi O‘zbekiston tarixidagi Alixonto‘ra Sog‘uniy faoliyatiga o‘xshab ketadi. Ammo Sog‘uniy surgun yillarini ilmiy-ma’rifiy faoliyatga sarfladi. Shomil esa Makkaga ziyoratga ketishni ma’qul deb topdi.